



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,  
9-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganish	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development .....	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari .....	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati .....	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari .....	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi .....	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari .....	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari .....	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili .....	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari .....	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari .....	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni .....	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili .....	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish .....	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari .....	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish .....	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish .....	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi .....	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish .....	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari .....	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari .....	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili .....	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		<a href="#">Turumbetova Aygul Yusupbaevna</a>	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		<a href="#">Ummatkulova Sayyora Shovkatovna</a>	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		<a href="#">Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov</a>	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		<a href="#">Ermatova Robiya Bekjonali qizi</a>	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		<a href="#">Ismailova Shaira Ferdausovna</a>	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners .....	204
		<a href="#">Maqsudova Gulnoz Olimovna</a>	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		<a href="#">Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi</a>	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		<a href="#">Sharipova Muhabbat Erkinovna</a>	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		<a href="#">Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich</a>	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv .....	222
		<a href="#">Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li</a>	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili .....	227
		<a href="#">Yuldashova Dilafuz Shavkatovna</a>	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....	229
		<a href="#">Safarova Madina Azamat qizi</a>	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		<a href="#">Аскарлова Гулрух Оринбасаровна</a>	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века .....	239
		<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб</a>	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана .....	242
		<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек</a>	



# MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA ERTAKLAR ORQALI TARBIYA BERISH USULLARI

X. Sh. Ochilova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarda ezgulik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy axloqiy fazilatlarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur sifatlarni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ta'sirchan janrlaridan biri bo'lgan ertaklar keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Ertaklar bolalarning tasavvurini boyitadi, nutqini rivojlantiradi, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishiga yordam beradi hamda hayotiy vaziyatlarni anglash va baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, ertak qahramonlarining xatti-harakatlari orqali bolalarda ijobiy xulq-atvor namunalari tarkib toptirish imkoniyati yaratiladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklardan tarbiyaviy vosita sifatida samarali foydalanish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim va tarbiya, milliy qadriyatlar, ertaklar, axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, tarbiyaviy faoliyat, mimika, imo-ishora.

**Abstract:** Early childhood is a crucial stage in the development of a child's personality. During this period, special attention should be given to fostering positive moral qualities such as kindness, compassion, patriotism, and diligence. Fairy tales, as one of the oldest and most influential genres of oral folk literature, possess considerable pedagogical potential for developing these qualities. They enrich children's imagination, enhance speech development, facilitate the acquisition of moral norms and values, and promote the ability to understand and evaluate real-life situations. Furthermore, the actions and behavior of fairy-tale characters provide children with positive models of conduct and moral decision-making. Therefore, the effective use of fairy tales as an educational tool in preschool educational institutions is considered one of the important and relevant tasks of contemporary pedagogy.

**Key words:** preschool education and upbringing, national values, fairy tales, moral education, spiritual and moral development, educational activities, facial expressions, gestures.

**Аннотация:** Дошкольный возраст является важным этапом формирования личности ребёнка. В этот период особое значение приобретает воспитание у детей таких положительных нравственных качеств, как доброта, милосердие, патриотизм и трудолюбие. Значительным педагогическим потенциалом в развитии данных качеств обладают сказки – один из древнейших и наиболее воздействующих жанров устного народного творчества. Сказки обогащают воображение детей, развивают их речь, способствуют усвоению нравственных норм и ценностей, а также формированию навыков понимания и оценки жизненных ситуаций. Кроме того, посредством анализа поступков сказочных персонажей у детей формируются образцы позитивного поведения и нравственного выбора. В связи с этим эффективное использование сказок как средства воспитания в дошкольных образовательных организациях является одной из актуальных педагогических задач.

**Ключевые слова:** дошкольное образование и воспитание, национальные ценности, сказки, нравственное воспитание, духовно-нравственное развитие, воспитательная деятельность, мимика, жесты.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida ertaklar vositasida boshlang'ich, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish kelajagimiz uchun muhim hamda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Zero, yoshligidan ertak eshitib ulg'aygan bolaning so'z boyligi, dunyoqarashi, fikrlashi va intiluvchanligi boshqa bolalarga nisbatan ancha boy bo'ladi. Ertaklar bolalarga orzu qilish, maqsad sari intilish va umid bilan yashashni nozik hamda ta'sirchan tarzda o'rgatadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarida ertaklardan tarbiyaviy vosita sifatida keng foydalanish bolalarning kelajakda yuksak yutuqlarga erishishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda biz texnika va texnologiyalar asrida yashamoqdamiz. Samolyot, raketa kabi murakkab texnik vositalar inson tafakkuri mahsuli sifatida yaratilgan. Ularning yaratilish tarixiga nazar tashlasak, ko'plab olim va ixtirochilarning dastlabki g'oyalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan, xususan, ertaklardan ilhomlanganligini ko'rish mumkin. Bunga misol sifatida "Uchar gilam" obrazini keltirish mumkin. Axir insoniyat hali uchar texnik vositalarni yaratmagan davrlardayoq osmonga parvoz qilish haqida orzu qilgan. Ertaklarda aks etgan bunday orzular keyinchalik ilmiy kashfiyotlar uchun g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilgan.

Ertaklar insoniyatning ezgu orzu-intilishlari, umid va armonlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy boylikdir. "Ertaklar yaxshilikka yetaklaydi" degan hikmat bejiz aytilmagan. Haqiqatan ham ertaklar bolalarni ezgulikka, halollikka va adolatga chorlaydi. Ular bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, ekologiya va atrof-muhitni asrash, yaxshilik bilan yomonlikni farqlash, mustaqil fikr yuritish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa ertaklarning tarbiyaviy imkoniyatlari naqadar keng ekanligini ko'rsatadi.

Ertaklar bolalarning o'y-xayollari va tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli ular orqali berilgan tarbiya bolaning ongiga chuqur singadi. Bolaga ilk yoshidanoq ertak o'qib berish uning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini oshiradi, izlanuvchanlik va bilimga chanqoqlik sifatlarini rivojlantiradi. Natijada bola ma'naviy barkamol, tafakkuri keng shaxs sifatida voyaga yetadi.

Mutolaa madaniyati kitobxonlarda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, badiiy asarlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish, axloqiy-estetik ideallarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Inson qancha ko'p kitob o'qisa, uning fikrlash doirasi shunchalik kengayib va teranlashib boradi. Mutolaa madaniyati asosida kitobxonlik madaniyati rivojlanadi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kitob mutolaasini targ'ib qilish, yosh kitobxonlarni muntazam kitob o'qishga odatlantirish, kitoblarni to'g'ri tanlashga o'rgatish hamda voqelik bilan muloqotga kirishish orqali o'z-o'zini anglashga erishish muhim ahamiyatga ega.

Mutolaa madaniyatining motivatsion bosqichida bolalarda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish talab etiladi. Kitobxonlikka qiziqtirishni bolalik davridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun oilada kitobxonlik muhitini yaratish zarur. Buvilar, bobolar va ota-onalar farzandlariga yoshligidan ertaklar, rivoyatlar hamda tarixiy hikoyalarni o'qib berish orqali ularda kitobga mehr uyg'otishlari lozim. Chunki yosh kitobxonlarning tafakkurini rivojlantiruvchi eng samarali vositalardan biri ertaklardir.

Ertaklar bolaning mutolaa madaniyatini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular azaldan bolalar qalbiga umid, ishonch va ezgulik ruhini singdirib kelgan hamda vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qilgan. Mardlik, halollik, oqillik kabi fazilatlar tarannum etilgan ertaklarda doimo ezgulik g'alaba qozonadi.

Ertaklar o'ziga xos badiiy tizim bo'lib, boshqa janrlar kabi badiiy nutq vositasida namoyon bo'ladi. Ertak janrining shakllanishida insonlarning tabiat kuchlarining mohiyatini anglash, ularni o'ziga bo'ysundirish, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushuntirish hamda adolat va baxt-saodatga erishish istagi muhim o'rin tutgan. Ana shu orzu-niyatlar xalq og'zaki ijodida ertak janrining yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Har bir xalq ertaklarida shu xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlari o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, barcha ertaklarda mehribonlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, botirlik, jasorat, tadbirkorlik, uddaburonlik, Vatanga va ota-onaga muhabbat kabi g'oyalar ilgari suriladi. Ertaklar ana shu orzu-umidlar va hayotiy haqiqatlarni o'zida mujassam etgani bois kattalar uchun ham, bolalar uchun ham qiziqarli va ma'naviy ahamiyatga egadir.

Barchamiz bolalikdan sevib o'qigan "Zumrad va Qimmat", "Ziyod botir", "O'rto'qmoq", "Malikai Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" kabi o'zbek xalq ertaklari hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ularda xalqimizga xos milliy qadriyatlar, odob-axloq, mehnatsevarlik, yurtparvarlik, mardlik va insoniy fazilatlar yorqin ifodalangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ertaklarning o'rni va ahamiyati ko'plab pedagog, psixolog hamda metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy manbalarda ertaklar bolalarning axloqiy qarashlarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, tasavvur doirasini kengaytirish hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Xalq pedagogikasi namoyandalarining qarashlariga ko'ra, ertaklar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari va axloqiy me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan tarbiya vositasi hisoblanadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Pedagog olim K.D. Ushinskiy bolalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, ertaklar bolaning ruhiy olamiga yaqin bo'lgan ta'limiy vosita ekanligini qayd etgan. Uning fikricha, ertaklar orqali bolalarda yaxshilik va yomonlik haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi.



L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida badiiy asarlar, jumladan, ertaklar bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Olim ertak mazmunini idrok etish jarayonida bolalarning nutqi, emotsional holati va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanishini alohida ta'kidlaydi.

A.V. Zaporjets va D.B. Elkoninlarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda ertak qahramonlariga taqlid qilish mexanizmi muhim o'rin tutishi ko'rsatib berilgan. Bolalar ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini kuzatish orqali ijobiy va salbiy xulq-atvor namunalarini farqlashni o'rganadilar.

O'zbekistonlik olimlardan M. Ochilov, R. Mavlonova, O. Hasanboyeva, B. Xodjeyev va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirishda xalq ertaklaridan foydalanishning metodik asoslarini yoritib berganlar. Ularning ilmiy ishlarida ertaklar bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, do'stlik va halollik kabi fazilatlarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tavsiflanadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ertak terapiyasi (skazkoterapiya) usulining samaradorligi ham keng o'rganilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, ertaklar yordamida bolalarning emotsional holatini yaxshilash, qo'rquv va xavotirlarini kamaytirish hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu borada T.D. Zinkevich-Yevstigneyevaning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ertaklar orqali tarbiya berishning asosiy usullari quyidagilardan iborat: ertaklarni ifodali o'qib berish, ertak mazmuni yuzasidan suhbat tashkil etish, qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, sahnalashtirish va rolli o'yinlardan foydalanish, rasmlar asosida ertakni qayta hikoya qildirish, ijodiy topshiriqlar va ertak to'qish mashqlarini tashkil etish hamda ertak terapiyasi elementlarini qo'llash.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, ertaklar maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, nutq rivoji, ijodiy tafakkuri va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklar asosida tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda tashkil etish bugungi kunda dolzarb pedagogik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

### 1. Ifodali o'qib berish usuli

Mazkur usulda tarbiyachi ertakni ovoz ohangi, mimika va imo-ishoralardan samarali foydalangan holda ifodali tarzda o'qib beradi. Ifodali o'qish bolalarning ertak mazmuniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, voqealar va qahramonlar xarakterini chuqurroq anglashiga hamda emotsional idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### 2. Suhbat va muhokama usuli

Ertak tinglangandan so'ng bolalar bilan mazmun yuzasidan suhbat va savol-javob tashkil etiladi. Masalan:

1. Ertakdagi qaysi qahramon sizga yoqdi?
2. Nima uchun uni yaxshi qahramon deb o'ylaysiz?
3. Siz uning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?

Bunday savollar bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi, voqealarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda axloqiy qadriyatlarni anglashiga yordam beradi.

### 3. Sahnalashtirish usuli

Ushbu usulda bolalar ertak qahramonlari rolini ijro etadilar. Rolli o'yinlar va sahnalashtirish jarayonida ular qahramonlarning his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari va xarakter xususiyatlarini chuqurroq anglaydilar. Natijada bolalarning nutqi, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy faolligi rivojlanadi.

### 4. Rasm chizish va ijodiy faoliyat usuli

Ertak mazmuni asosida rasm chizish, aplikatsiyalar tayyorlash yoki qahramonlar obrazlarini yaratish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ushbu faoliyat ertak mazmunini mustahkam o'zlashtirish va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

### 5. Muammoli vaziyat yaratish usuli

Tarbiyachi ertak voqealari asosida muammoli savollar va vaziyatlarni taqdim etadi. Masalan: "Agar Zumrad kempirga yordam bermaganida nima bo'lardi?" kabi savollar bolalarni fikrlashga, voqealarning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga undaydi. Ushbu usul axloqiy qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarga munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

## 6. Interfaol o'yinlardan foydalanish usuli

“Qahramonni top”, “Ertakni davom ettir”, “Kim nima dedi?” kabi didaktik va interfaol o'yinlar ertak mazmunini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur o'yinlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi, xotira, diqqat va tafakkur jarayonlarini rivojlantiradi hamda o'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy ertaklardan foydalanilgan mashg'ulotlarda bolalar axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglay boshlaydilar. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini muhokama qilish jarayonida bolalarda adolat, halollik, mehr-shafqat, do'stlik va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ertak mazmunini tahlil qilish bolalarning yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va noto'g'rilik haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Shuningdek, rolli o'yinlar va sahnalashtirish faoliyati bolalarning ijtimoiy moslashuvi, jamoada o'zini tutish, muloqotga kirishish hamda hamkorlikda faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mashg'ulotlar davomida bolalarning faolligi, tashabbuskorligi va ertaklarga bo'lgan qiziqishining sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bundan tashqari, ertaklar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat bolalarning nutq madaniyati, tasavvuri va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham samarali vosita ekanligi aniqlandi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ertaklar samarali pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklar bolalarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va estetik rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatib, ularda ijobiy fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hamda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertaklardan foydalanishda ifodali o'qish, suhbat va muhokama, sahnalashtirish, ijodiy topshiriqlar hamda interfaol o'yinlardan foydalanish ularning tarbiyaviy samaradorligini yanada oshiradi. Mazkur metodlar bolalarning mustaqil fikrlashi, nutq madaniyati, ijodiy tafakkuri va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklardan maqsadli, izchil va tizimli ravishda foydalanish bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularni ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalashning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sheraliyevna, O. H. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik to'g'riligini shakllantirish. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 179-185.
2. Sheraliyevna, O. X. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarni suhbat qurish o'rgali nutqini o'stirish usullari. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.
3. Ochilova, X. S. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari. Inter education & global study, (7), 144-148.
4. Sheraliyevna, O. H. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.
5. Sheraliyevna, O. H. (2023). Tarbiya-ijtimoiy hodisa. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(1), 130-132.
6. Ravshanova, N. N. (2023). Designing Modern Models of Biological Education Theories and Content in Educators. Telematique, 22(01), 3034-3040.
7. Norboyevna R.N., Shukurullaev A.O. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik teatrni tashkil etish orqali ekologik konseptual asoslarini shakllantirish. // Inter education & global study. 2024. №7. B.122-128.
8. Ravshanova, N. N. (2025). Refleksiya bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim sifati. Inter education & global study, (1), 362-370.
9. Ravshanova, N. (2025). Main ways and methods of forming students' reflective skills in the process of professional and pedagogical training. maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(1).
10. Ravshanova, N. N., & qizi Nuraliyeva, R. R. (2025). Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish. Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 3(1), 36-42.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.